

**Xalqaro Nordik universiteti “Iqtisodiyot va pedagogika fakulteti” da  
o‘tkazilgan “Adabiyotlar haftaligi” bo‘yicha**

**Ataboyeva Muxlisa Azimjon qizi**  
**Xalqaro Nordik Universiteti**  
**Tyutor, tarbiyachi – pedagog**  
**[m.ataboyeva@nordicuniversity.org](mailto:m.ataboyeva@nordicuniversity.org)**  
**+99890-817-07-32**

**HISOBOT**

2025-yil 14-fevral - shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 542 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan kitobxonlar tanlovi qizg‘in kechdi.

“Kitoblashamiz” loyihasi doirasida talabalarimizga “Suxandonlar klubi” kanalida audio kitob o‘qib eshittirilib, o‘nlab talabalar ovoqli chatlarda faol qatnashgan edilar.

Bugungi kitobxonlik tadbirida esa munozaralar yanada qizg‘in kechdi. Savollarga eng ko‘p to‘g‘ri javob bergan talabalar dekan sovg‘asi bilan taqdirlandilar.

Adabiy anjumanda milliy liboslarimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz keng targ‘ib etildi. Bobur g‘azallariga bastalangan kuy-ko‘shiqlar esa davraga jo‘shqin ruh bag‘ishladi.



